
**Янгиланаётган Ўзбекистонда фан, таълим ва инновация уйгунилиги мавзусидаги
республика 5 – сон кўп тармоқли илмий-масофавий онлайн конференцияси 1-кисм**

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ ЁШ ОЛИМЛАР КЕНГАШИ
“BZONE CONSULTING CENTER” МЧЖ ҲАМДА
ЎЗБЕКИСТОН ИНТЕРНЕТ ТАДБИРКОРЛАР ВА ЭЛЕКТРОН САВДО АССОЦИАЦИЯСИ
ТАШАББУСЛАРИ БИЛАН

**“ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ФАН, ТАЪЛИМ ВА
ИННОВАЦИЯ УЙГУНИЛИГИ”**

мавзусидаги

**Республика 5-сон кўп тармоқли илмий-масофавий онлайн конференцияси 1-кисм
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**“НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ В ОБНОВЛЕНИИ УЗБЕКИСТАНА
И СОВМЕСТИМОСТЬ ИННОВАЦИЙ”
РЕСПУБЛИКА 5 – НЕСКОЛЬКО НАУЧНЫХ РАССТОЯНИЙ
МАТЕРИАЛЫ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ ЧАСТЬ 1**

**“SCIENCE, EDUCATION IN RENEWING UZBEKISTAN
AND COMPATIBILITY OF INNOVATION”
REPUBLIC 5 – MULTIPLE SCIENTIFIC DISTANCE
MATERIALS OF ONLINE CONFERENCE PART 1**

ТОШКЕНТ 2021

Удк. 001.895(575.1)

Ббк. 72(5У)

Я 61

“Янгиланаётган Ўзбекистонда фан, таълим ва инновация уйғулиги” [ТОШКЕНТ 2021]

“Янгиланаётган Ўзбекистонда фан, таълим ва инновация уйғулиги” мавзусидаги республика 5 –
сон кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференцияси материаллари
Тўплами 1-қисм, 20 февраль, Тошкент 2021. 770-б.

Ушбу Республика 5-сон кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция 1-қисми
2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари
бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа – илмий изланиш ютукларини амалиётга
жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантириш, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси
Президенти Шавкат Мирмонович Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлис аъзоларига
анъянавий мурожаатномасида мамлакатимизда илм-фанни янада равнак топтириш, ёшларимизни
чукур билим, юксак маънавият ва маданият эгаси этиб тарбиялаш, рақобатбардош иқтисодиётни
шакллантириш борасида бошлаган ишларимизни жадал давом эттириш ва янги, замонавий боскичга
кўтариш борасидаги вазифалардан келиб чиқиб Тўпламга Республика Олий ва ўрта маҳсус ўкув
юргизиладиги илмий изланишлар олиб бораётган ёш тадқиқотчилар, докторант, педагоглар, мактаб
ўқитувчилари, магистрант ва талабаларнинг мақола ва тезислари киритилган.

Масъул муҳаррирлар:

1. Г. Т. Исанова – Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети “Ўзбекистонда демократик давлат қуриш назарияси ва амалиёти” кафедраси катта ўқитувчи, фалсафа доктори (PhD).
2. Х.У.Тўхтаев. Ўзбекистон Республикаси Конунчилик палатаси хузуридаги “Ёшлар парламенти” аъзоси.

Таҳририят аъзолари:

1. **Рақамли иқтисодиёт. Янгиланаётган Ўзбекистонни ИТ платформалари, янги технологиялар ва бизнес моделлари орқали ривожлантириш йўллари;** (Бабаджабов Содикжон Шавкат ўғли – Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги Инновация ва рақамли технологияларни ривожлантириш бошкармаси ходими, магистр, академик)
2. **Хуқукий тадқиқотлар йўналиши;** (Исанова Гулбаҳор Тахировна – Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети “Ўзбекистонда демократик давлат қуриш назарияси ва амалиёти” кафедраси катта ўқитувчи, фалсафа доктори (PhD))
3. **Ўзбекистонда ижтимоий соҳани ривожлантиришда ҳамда ахолининг турли қатламларини ижтимоий қўллаб-қувватлашда замонавий технологияларни амалга ошириш йўналишлари;** (Г.Х. Тиллаева – ЎзРФА Ёш олимлар кенгаши раис ўринбосари, фалсафа фанлари номзоди, доцент)
4. **Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар;** (Сафаров Алижон Итолмасович – Журналистика ва оммавий коммуникациялар университети доценти.)

5. **Тарих саҳифаларидағи изланишлар;** (О.С. Хайтова – Навоий давлат кончилик институтининг Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири, тарих фанлари номзоди, доцент)
6. **Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни;** (Жуманиязова Насиба Сапарбаевна - ТошТИМИ, ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси таянч докторанти, фалсафа доктори (PhD))
7. **Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни;** (Файзийева Ширин Шодмоновна – Қарши Мухандислик иқтисодиёт институти Инновацион иқтисодиёт кафедраси ўқитувчisi, иқтисод фанлари номзоди доцент)
8. **Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар;** (Тошева Дилдора Абдумаликовна – БухДУ Ўзбек тилшунослиги кафедраси ўқитувчisi, фалсафа доктори (PhD))
9. **Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар;** (Тошева Дилдора Абдумаликовна – БухДУ Ўзбек тилшунослиги кафедраси ўқитувчisi, фалсафа доктори (PhD))
10. **Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши;** (Абдуллаев Машариб Сайдаматович – Хоразм маъмун академияси ижтимоий-гуманитар фанлар бўлим бошлиғи, санъатшунослик фанлари доктори)
11. **Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши;** (PhD, Техника фанлари фалсафа доктори, Ш.Х. Байматов – Тошкент архитектура-курилиш институти катта ўқитувчisi)
12. **Техника ва технология соҳасидаги инновациялар;** (PhD, техника фанлари бўйича – Л.Н.Самиев, Тошкент ирригатсия ва қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш мухандислари институти доценти)
13. **Физика-математика фанлари ютуқлари;** (С.С. Сайтова – Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети доценти, PhD – аник фанлар бўйича)
14. **Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар;** (Аллаяров Латиф Камолович – ЎзРФА Генетика илмий текшириш институтининг фалсафа доктори (PhD))
15. **Кимё фанлари ютуқлари;** (Ш.О. Сайдова – ЎзРФА Зоология институтида кичик илмий ходими)
16. **Биология ва экология соҳасидаги инновациялар;** (Мирзаева Адолат Усмонбайевна – ЎзРФА Ёш олимлар кенгаши Табиий сектор бошлиғи, фалсафа доктори (PhD))
17. **Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари;** (Шарипова Васила Кусиновна – ЎзРФА Ботаника институти катта илмий ходими, фалсафа доктори, PhD)
18. **Ўзбекистонда геология-минерология ҳамда география фани соҳасидаги инновациялар;** (Л.Н.Самиев – Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш мухандислари институти доценти, PhD – техника фанлари бўйича)

Нашрга тайёрловчи ва техник мухаррирлар:

1. О.С. Хайтова – Навоий давлат кончилик институтининг ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири, тарих фанлари номзоди, доцент.
2. М.М. Ваҳобова – Алишер Навоий номидаги ТошДЎТАУ Таълим сифатини назорат килиш бўлими бош мутахассиси.

Тўпламга Республика Олий ва ўрта маҳсус ўкув юртларида илмий изланишлар олиб бораётган ёш тадқиқчилар, докторант, педагоглар, мактаб ўқитувчилари, магистрант ва талабаларнинг мақола ва тезислари киритилган.

Матиларда фойдаланилган мисол, кўчирма ва маълумотлар аниқлиги учун муаллифлар жавобгардирлар!!!

**ШАҲИДИ. ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ СОҲАНИ
РИВОЖЛАНТИРИШДА ҲАМДА АҲОЛИНИНГ ТУРЛИ
ҚАТЛАМЛАРИНИ ИЖТИМОИЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШДА
ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ АМАЛГА ОШИРИШ
ЙЎНАЛИШЛАРИ**

**HAMJIHATLIK VA TOTUVLIK FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA
OILANING ROLI**

*Xoliqov Lazizjon Maxmud o'g'li
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada hamjihatlik va totuvlik fazilatlarini shakllantirishda oilaning roli, mamlakatimiz tinchligi har jihatdan oilalar totuvligiga bog'liq ekanligi hamda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: hamjihatlik, ishonch, tarbiya, halollik, ota-on, farzand, mahalla.

Insoniyat sivilizatsiyasi tarixiy taraqqiyotining barcha bosqich va davrida turli millatga mansub oilalarning hamjihat bo'lib yashaganligini hech kimga sir emas. Azaldan oila muqaddas dargoh hisoblanib, unda hamjihatlik, o'zaro ishonch, hurmat, tarbiya singari muhim fazilatlar shakllangan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev oilani hamjihatlikni shakllantiradigan maskan sifatida ta'riflab, quyidagilarni e'tirof etadilar: "Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat'i nazar, kim bo'lishidan qat'i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o'zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman". "Odam baxtliman deyishga qanchalik haqqi bor? Agar

oilang bilan sen baxtli bo’lsang, baxtliman deyishga haqqing bor. Faqat oilam emas, xalqim baxtli bo’lsa men o’zimni baxtli deb bilaman”⁴.

Prezidentimizning ushbu fikrlaridan ham, har bir oila hamjihatlikda yashasagina, xalq ham hamjihat va baxtli bo’ladi degan ma’noni anglab yetishimiz mumkin.

O’zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 2-moddasiga muvofiq, “oilaviy munosabatlarda ayol va erkak teng huquqli bo’lib, oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarining o’zaro kelishuv yo’li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g’amxo’rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a’zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustunligi tamoyillari asosida” amalga oshirilishi ta’kidlangan. Demak, mazkur norma mamlakatimizda oila institutining hamjihatlikda yashashni ta’minlovchi mustahkam huquqiy asosidir.

Bundan ko’rinib turibdiki, oiladagi munosabatlar er-xotinning o’zaro hamjihatligi, kelishuvi asosida yo’lga qo’yiladi. Jumladan, farzandni uylantirish arafasidagi ota-onalar bilan mahalla, nuroniyalar, xotin-qizlar masalalari bilan shug’ullanuvchi mutaxassislar tushuntirish ishlarini olib borishi zarur. Bu borada, ijtimoiy so’rovlari, tahlillari va aniq misollar asosida ixcham va sodda matnlar tayyorlab tarqatilishi yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali aholi bilan muloqotlar olib borilishi maqsadga muvofiq.

Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov “Bizning –tojik, turkman, qirg’iz, qozoq va o’zbeklarning-tarixiy birligimiz, madaniy birligimiz, ma’naviy birligimiz, diniy birligimiz, bir so’z bilan aytganda chinakkam insoniy birligimiz haqida ko’p gapirishning xojati yo’q, xalqlarimizning azaliy birligi va bir-biriga intilishi har

⁴ <https://www.gazeta.uz/oz/2018/07/25/prezident/S havkat Mirziyoyev — oila va baxt haqida 2018-yil 25 iyul>

bir uyda, har bir oilada, har bir qishloqda va har bir shaharda yaqqol seziladi”- deb, alohida ta’kidlagan edi.⁵

Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimizning har bir hududida turli millatga mansub oilalar tinch-totuv va hamjihatlikda yashab kelmoqdalar. Hattoki, muqaddas kitoblarimizda ham oila a’zolari bir-birlarga zulm qilmasdan, ahil va inoq bo’lib yashashlari lozimligi aytib o’tilgan.

“Kim o’z birodariga temir parchasi ila ishora qilsa ham, farishtalar (o’shani qo’ymaguncha) uni la’natlab turadilar. Agar o’sha o’zining otaona bir akaukasi bo’lsa ham”, deganlar (Imom Muslim va Imom Termiziyy rivoyati). Ushbu hadisda birovga zulm qilish, qon to’kish u yoqda tursin, hattoki temir parchasi bilan bo’lsa ham birovga ishora qilib bo’lmasligi haqida so’z ketmoqda. Yuqoridagi dalillardan dinimizning tinchlikka e’tibori nechog’li katta ekani yaqqol namoyon bo’ladi.⁶

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yilning 20-avgust kuni mutlaqo yangi tizim, tartib va yondashuvlar asosida iqtisodiy faollikni oshirish hamda har bir tuman va shaharga qo’shimcha zaxira yaratish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig’ilishi o’tkazildi.

Yig’ilishda ishsiz yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta’minlash masalasiga alohida ahamiyat qaratildi. Bosh vazir o’rinbosariga ularni talab yuqori bo’lgan kasblar va tadbirkorlikka o’qitish, shu asosda biznesini yo’lga qo’yishda moliyaviy qo’llab-quvvatlash tartibini joriy etish vazifasi yuklatildi. Bu ishlarni tizimli amalga oshirish maqsadida, mamlakatimizda joriy etilgan “temir daftar”lar singari, ishsiz yoshlar bo‘yicha alohida (“Yoshlar daftari”), ishsiz va boquvchisiz xotin-qizlar bo‘yicha

⁵ Karimov I.A. Vatan sajdah kabi muqaddasdir. //Karimov I.A. Vatan sajdah kabi muqaddasdir. 3-jild.-T.: O’zbekiston, 1996.-83 b.

⁶ Diniy bag’rikenglik tamoyillari yoshlar talqinida. Talabalar respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T.: “Movarounnahr”, 2015. -7b

alohida (“Ayollar daftari”) ro‘yxatlar shakllantirib, har biri bilan yangi tizim, yangicha tartibda manzilli ishlash muhimligi ta’kidlandi.⁷

Mamlakatimiz tinchligi har jihatdan oilalar totuvligiga bog’liq ekan, shu sababli xonadonlarda xotirjamlik, tinchlik va osudalikni ta’minlashga katta e’tibor qaratish, ota-onalar, buva-buvilar, farzanlar ahillikda yashasa har bir xonadon xotirjamligini ta’minlash borasidagi islohotlarni tizimli yo’lga qo’yish dolzarb ahamiyatga ega. Shu islohotlar negizida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 18 fevral kuni “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo’llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi. Farmonga muvofiq, har bir mahallada “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyiliga asoslangan yangi tizim joriy etilmoqda. Shuningdek, ushbu farmon bilan **O‘zbekiston Mahalla va oilani qo’llab-quvvatlash** vazirligi hamda uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) bo‘linmalari tashkil etildi.

Jamiyatda “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilining to‘laqonli va samarali joriy etilishida har tomonlama ko‘maklashish, oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan yaqin hamkorligini o‘rnatish vazirlikning asosiy vazifa va faoliyat yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Farmonga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi hamda “Mahalla” o‘quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot markazi negizida “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etiladi va vazirlik tuzilmasiga o‘tkaziladi.

⁷ <http://xs.uz/uz/post/ishsiz-yoshlar-bojicha-alohida-yoshlar-daftari-ishsiz-va-boquvchisiz-khotin-qizlar-bojicha-alohida-ayollar-daftari-zhorij-tiladi>

Ma'lumot uchun, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi rahbar organlarining ushbu tashkilotlarni tugatish haqidagi qarorlari qabul qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston faxriyalarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamoat birlashmasi shaklidagi "Nuroniy" jamg'armasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) bo'limlarini tugatish haqidagi qarorlari qabul qilindi. Shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, mahalla tizimini rivojlantirish va jamiyatda "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyilini joriy etishning 2020–2024 yillarga mo'ljallangan konsepsiysi ishlab chiqilishida ham hamjihatlik va hamkorlik g'oyalari mujassamdir.

Bugungi kunda O'zbekiston hukumati oilalardagi totuvlik, hamjihatlik muhitini ta'minlab berish borasida keng ko'lamli islohotlar o'tkazish bilan bir qatorda, qo'shni davlatlardagi tinchlik, hamjihatlikni ta'minlash borasida ham o'z hissasini qo'shmoqda.

Fikrimizning isboti sifatida esa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMT 75-sessiyasidagi Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish masalalari Birlashgan Millatlar Tashkilotining doimiy e'tibor markazida bo'lib qolishi zarur degan fikrlarini keltirib o'tishimiz mumkin.

Faqat birgalikda va yaqin hamkorlik orqali biz afg'on xalqining ezgu orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishimiz mumkin. Bu borada «Beqaror va vayronkor vaziyatdan — tinchlik va bunyodkorlik sari» degan tamoyil asosida ish olib borish muhimdir. Shu boisdan **Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzurida afg'on xalqining dardu tashvishini tinglaydigan, doimiy faoliyat ko'rsatadigan qo'mita tashkil etish**

lozim. Ushbu qo‘mitaning asosiy vazifasi Afg‘onistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ko‘mak berishdan iborat bo‘lishi zarur”.⁸

Shu ma’noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo’lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo’lsa, baxtli bo’lsa, vatan tinch bo’ladi. O’sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko’rish hammamizga nasib etsin!”, -deb ta’kidlashlari bejiz emas, albatta.⁹

Zero, oilasida hamjihatlik, totuvlik bo’lgan inson, qayerda bo’lmashin qalbida tinchlik, ishida samara bo’ladi. Oiladagi inoqlik va totuvlik har qanday qiyin va mushkul ishlarni bartaraf etishga yordam beradi. Faqatgina bir xonodon a’zolari emas, balki ellar ham bir yoqadan bosh chiqarib ish ko’rsalar har qanday dushman ustidan g’alaba qozoniladi. Mashhur yozuvchi Abdulla Qahhor shunday yozadi: “Oilaviy baxtda hikmat ko’p, baxtiyor oila eng biringchi va eng kuchli tarbiya o’chog’idir.” Demak, mamlakatda tinchlik, barqarorlik bo’lishini istar ekanmiz avvalo, oilalardagi totuvlikka, hamjihatlikka katta e’tibor qaratishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2018/07/25/prezident/> S havkat Mirziyoyev — oila va baxt haqida 2018-yil 25 iyul
2. Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. //Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. 3-jild.-T.: O’zbekiston, 1996.-83 b.
3. Diniy bag’rikenglik tamoyillari yoshlar talqinida. Talabalar respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T.: “Movarounnahr”, 2015. -7b

⁸ <https://www.gazeta.uz/oz/2020/09/23/bmt/>

⁹ <https://www.xabar.uz/uz/siyosat/prezident-oila-kichik-vatan>. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning kuni xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi. 2018-yil 19-yanvar

4. <http://xs.uz/uz/post/ishsiz-yoshlar-bojicha-alohida-yoshlar-daftari-ishsiz-va-boquvchisiz-khotin-qizlar-bojicha-alohida-ayollar-daftari-zhorij-etiladi>
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/09/23/bmt/>
6. <https://www.xabar.uz/uz/siyosat/prezident-oila-kichik-vatan>. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning kuni xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi. 2018-yil 19-yanvar

11. <i>Xoliqov Lazizjon</i> , HAMJIHATLIK VA TOTUVLIK FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING ROLI.....	63
12. <i>Karimova Komila</i> , ORASIDA KITO BXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	69
13. <i>Рахимов Илхомжон</i> “МАҲАЛЛА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИНИНГ ПОЙДЕВОРИ”.....	72
14. <i>Toshmirzayev Suxrobek</i> , UZLUKSIZ TA'LIM TARBIYA TIZIMINING YOSHLARNI IJTIMOIY HAYOTGA TAYYORLASH JARAYONI BILAN O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	80
15. <i>Nodirabegim Otabekova</i> , BUGUNGI KUNDA O'ZBEKISTON YOSHLARIGA BO'LAYOTGAN YUksak E'TIBOR	84
16. <i>Nazarbekova Hilola Mirzoyev Jamshid</i> OILA - MUQADDAS DARGOH.....	87
17. IV БЎЛИМ. ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР	
18. <i>Шодиева Моҳинур, Олтибоев Мирзоҳид</i> ЁШЛАРНИНГ МАҶНАВИЙ ОНГИ ВА ФАЛСАФИЙ БИЛИМИНИ РИВОЖЛАНИШИДА ҚАДИМГИ ЮНОН ВА РИМ ФАЛСАФАСИНИНГ ЎРНИ.....	91
19. <i>Turdiyev Bexruz Sobirovich</i> , YANGIALANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHALARINING ROLI.....	94
20. <i>Qurbanov Rashid Ramazonovich</i> SHAXS MA'NAVİYATINI RIVOJLANTIRISH VOSITALARI.....	100
21. V БЎЛИМ. ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР	
22. <i>Исмоилова Малоҳат</i> ТАРИХ ДАРСЛАРИДА ТАРИХИЙ МАНБАЛАРДАН ВА БОШҚА АДАБИЁТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	103
23. <i>Ниёзов Нурали Рустамович</i> АСРЛАР СИНОВИДАН ЎТГАН ДҮСТЛИК РИШТАЛАРИ.....	105
24. <i>Хамроқулова Назокат</i> , ХИВА ОБИДАЛАРИ МОЗИЙДАН СЎЗЛАЙДИ.....	110
25. <i>Ярашова Моҳларойим</i> БУХОРО ВОҲАСИ АЁЛЛАРИНИНГ АНЪНАВИЙ ЛиБОСЛАРИ (XIX АСР ОХИРИ XX АСР БОШЛАРИДА).....	119
26. <i>Samadova Hurmat Masharifovna</i> SADRIDDIN AYNIY ASARLARIDA SADRI ZIYO XONADONIDAGI “TO'GARAK” TAVSIFI.....	126
27. <i>Шерали Гулямович Джураев</i> , НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ УЧЁНОГО-ВОСТОКОВЕДА Б.А.КАЗАКОВА. ИЗУЧЕНИЕ РУКОПИСЕЙ БУХАРСКОГО МУЗЕЯ.....	131
28. <i>Murodova Dilrabo Shomurodovna</i> BUXORO VILOYATIDA ARXIV MUASSASALARI TIZIMINING SHAKLLANISHI (TUMAN VA SHAHAR ARXIVLARI MISOLIDA).....	137
29. <i>Muqaddas Xamrayeva Qudratovna</i> , BERUNIYNING GEOGRAFIK QARASHLARI: TARIX VA HOZIRGI ZAMON.....	142
30. <i>Erkinov Rustam</i> BOLALAR O'YINLARINING TARIXIY ILDIZLARI.....	146



BUSINESS ZONE
Consulting Center


O'zbekiston

Internet tadbirkorlari
va elektron saudo asoschasi



LOVIHA.COM
BUSINESS ZONE CONSULTING CENTER

DIPLOM



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI YOSH
OLIMLAR KENGASHI, "BZONE CONSULTING CENTER" MCHJ VA
O'ZBEKISTON INTERNET TADBIRKORLAR VA ELEKTRON SAVDO
ASSOTSATSIYASI TASHABBUSLARI BILAN O'TKAZILGAN**

"Yangilanayotgan O'ZBEKISTONDA FAN, TA'LIM VA INNOVATSIIYA UYG'UNLIGI"
mavzusidagi Respublika ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiyasida

Xoliqov Lazizjon Maximud o'g'li

FAOL ISHTIROKI UCHUN

S.S. GULYAMOV

O'Z VA YOSH OLIMLAR KENGASHI RAJISI

IBETA
UZBEKISTAN ITESA

O'ZBEKISTON INTERNET TADBIRKORLARI
VA ELEKTRON SAVDO ASSOTSATSIYASI ASOSCHASI

S.SH. BABADJANOV

BZONE CONSULTING CENTER ASOSCHASI



2023-yil



Sertifikat

BILAN TAQDIRLANADI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI YOSH
OLIMLAR KENGASHI, "BZONE CONSULTING CENTER" MCHJ VA
O'ZBEKISTON INTERNET TADBIRKORLAR VA ELEKTRON SAVDO
ASSOTSATSIYASI TASHABBUSLARI BILAN O'TKAZILGAN

"Yangilanayotgan O'ZBEKISTONDA FAN, TA'LIM VA INNOVATSİYA UYG'UNLIGI"
mavzusidagi Respublika ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiyasida

Fevral
2021 ml



Xoliqov Lazizjon Maxmud o'g'li

FAOL ISHTIROKI UCHUN

S.S. GULYAMOV
O'Z VA YOSH OLIMLAR KENGASHI RAJISI



S.X. AKBARXODIAYEVA
O'ZBEKISTON INTERNET TADBIRKORLARI
VA ELEKTRON SAVDO ASSOTSATSIYASI ASSOSCHASI



S.SH. BABAJANOV
BZONE CONSULTING CENTER ASSOCCHASI